

AHOLINING MEXANIK HARAKATLARI KO'RSATKICHLARI (OLTIARIQ TUMANI MISOLIDA)

Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Eshimova Feruzaxon Dilmurodjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: maqolada aholining mexanik harakat ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari, mutloq va nisbiy mexanik harakat ko'rsatkichlari, ularga ta'sir qiluvchi omillar hamda O'zbekiston aholisining mexanik harakat ko'rsatkichlari dinamikasi yoritilgan. Bundan tashqari Oltiariq tumani demografik holati va mehanik harakati bo'yicha to'liq ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, immigratsiya, emmigratsiya, ko'chib kelganlar koeffitsiyenti, ko'chib ketganlar koeffitsiyenti, mexanik o'zgarish (ko'payish yoki kamayish) koeffitsiyentlari.

Аннотация: в статье описаны показатели механического движения населения, методы их расчета, абсолютные и относительные показатели механического движения, факторы, влияющие на них, а также динамика показателей механического движения населения Узбекистана.

Ключевые слова: Миграция, иммиграция, эмиграция, коэффициент иммигрантов, коэффициент эмигрантов, коэффициенты механического изменения (увеличения или уменьшения).

Abstract: the article describes the indicators of mechanical movement of the population, methods of their calculation, absolute and relative indicators of mechanical movement, factors influencing them, as well as the dynamics of indicators of mechanical movement of the population of Uzbekistan.

Key words: Migration, immigration, emigration, immigrant coefficient, emigrant coefficient, coefficients of mechanical change (increase or decrease).

Kirish: Mamlakat (hudud) aholi soni migratsiya hisobiga ham o'zgaradi. Migratsiya so'zi lotincha bo'lib, ko'chish ma'nosini bildiradi. Migratsiya ikki xil ya'ni mamlakatga (hududga) aholining ko'chib kelishi (immigratsiya) yoki mamlakatdan (hududdan) aholining ko'chib ketishi (emmigratsiya) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aholining bir hududdan ikkinchi hududga yoppasiga ko'chishi turli sabablarga asosan bo'lishi mumkin. O'zbekiston aholisi ko'p millatli bo'lib, hozirgi paytda 130 dan ortiq millat va elatlar aholisi tinch-totuv, Konstitutsiyaga

asoson teng huquqlarga ega holda yashamoqda. O'zbekistonda qo'shni mamlakatlar millatlari bo'lmish: tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar ko'p yashaydi. Ulardan tashqari ruslar, qrim tatarlari, mesxeti turklari, koreyslar va boshqa millat vakillari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ruslar O'rta Osiyo xonliklarini chor Rossiyasi bosib olgan paytlarda, ayniqsa sobiq Soved davrida juda ko'plab ko'chib kelishgan. Chunki sobiq SSSR paytida tuman, viloyat kommunistik partiya qo'mitasining 2-sekretarlari, yirik korxonalar va tashkilot rahbarlari albatta rus millatiga mansub kishilar bo'lishgan. Qrim tatarlari va mesxeti turklari esa 2 – Jahon urushi davrida Stalin buyrug'iga asosan shoshilinch ravishda O'rta Osiyo respublikalariga surgun qilingan. Mehmondo'st o'zbek xalqi o'z uylaridan ularga joy bergan, qiyinchiliklarga qaramasdan oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan yordam bergan.

1985-1990 yillarda sobiq SSSRga M.S.Gorbochev prezidentlik qilgan davrlarda millatlarga erkinlik berilib, qrim tatarlarning ma'lum qismi o'z yurtlariga, yahudiylar esa Isroil va AQSH davlatlariga ko'chib keta boshladilar. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida ruslar, ukrainlar, Farg'ona voqeasidan (1989 yil may oyida) keyin mesxeti turklari ko'plab ko'chib keta boshladi. Qozog'iston ham poytaxtini Ostona shahriga ko'chirgandan (Olma-ota shahridan) keyin qozoqlarning ham ma'lum qismi ko'chib ketdi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki Rossiyaga ko'chib ketganlar sovuqqa, shartsharoitga o'rganmaganligi uchun, mesxeti turklari esa ularning qadimiy joylari boshqalar tomonidan egallanganligi uchun ularning bir qismi O'zbekistonga qaytib ko'chib keldilar. Aholining mexanik harakati mutloq miqdorlarda (necha kishi ko'chib keldi, necha kishi ko'chib ketdi) va 1000 aholiga nisbatan nisbiy miqdorlarda qayd qilinib, o'rganiladi. Aholi mexanik harakati nisbiy ko'rsatkichlari:

- Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti;
- Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti;
- Mexanik o'zgarish (ko'payish yoki kamayish) koeffitsiyentlari bilan ifodalanadi.

Migratsiya ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Agarda aholi mamlakat ichida bir hududdan (viloyatdan) ikkinchi bir hududga (viloyatga) ko'chib o'tsa, bunday ko'chish ichki migratsiya hisoblanadi. Agarda aholi mamlakatdan umuman boshqa davlatga ko'chib ketsa, yoki buning aksicha boshqa davlatdan mamlakatga ko'chib kelsa, bunday ko'chish tashqi migratsiya hisoblanadi.

Mexanik harakat nisbiy ko'rsatkichlari quyidagicha hisoblanadi:

1. Kelganlar koeffitsienti (Kk_k) boshqa joylardan ushbu aholi punkitiga doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar sonini 1000 ko'paytirib, aholi o'rtacha soniga bo'lamiz.

$$Kk_k = \frac{\text{ko'chibkelganlar soni} \times 1000}{\text{aholi o'rtachasoni}}$$

2. Ketganlar koeffitsienti (Kt_k) – ushbu aholi punkitidan boshqa joyga doimiy yashash uchun ko'chib ketganlar sonini 1000 ga ko'paytirib aholining o'rtacha soniga bo'lamiz.

$$Kt_k = \frac{\text{ko'chib ketganlar soni} \times 1000}{\text{aholi o'rtacha soni}}$$

3. Aholining mexanik harakat koeffitsienti doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar o'rtasidagi farqni 1000 ko'paytirib, aholi o'rtacha soniga bo'lish bilan topiladi. Agarda ko'chib kelganlar soni ko'chib ketganlar sonidan ko'p bo'lsa, unda mexanik o'sish koeffitsienti aniqlanadi.

$$Mo'_k = \frac{(\text{ko'chib kelganlar} - \text{ko'chib ketganlar}) \times 1000}{\text{aholi o'rtachasoni}}$$

$Mo'_k \rightarrow$ aholining mexanik o'sish koeffitsienti.

4. Agarda ko'chib ketganlar soni, ko'chib kelganlar sonidan ortiq bo'lsa, unda mexanik kamayish koeffitsientini (Mk_k) aniqlash lozim.

$$Mk_k = \frac{(\text{ko'chib ketganlar} - \text{ko'chib kelganlar}) \times 1000}{\text{aholi o'rtachasoni}}$$

Har bir hudud miqyosida aholining tabiiy va mexanik o'zgarishi natijasida, aholi sonining istiqboli aniqlanadi. Hududlar xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish rejalarni belgilashda foydalaniladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Oltiariq tumanida 2022-yilning 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni 222 336 kishini tashkil qildi va yil boshidan 3 257 kishiga yoki 1,5 %ga ko'paydi. Shuningdek, 2022- yilning 1-oktabr holatiga Oltiariq tumanida 108,8 ming kishi ayollar va 113,5 ming kishini erkaklar tashkil etgan.

Asosiy ijtimoiy ko'rsatkichlarning solishtirma tahlili

<i>Ko'rsatkich nomi</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>		
	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>	<i>Farg'ona viloyati</i>	<i>Oltiariq tumani</i>

Doimiy aholi soni, ming kishi	35 821,0	3 954,2	222,3
-------------------------------	----------	---------	-------

shundan, shahar joylarda	18 234,8	2 220,2	167,3
qishloq joylarda	17 586,2	1 734,0	55,0
Tug‘ilganlar soni, kishi	681 760	74 055	4 225
Vafot etganlar soni, kishi	130 366	14 121	735
shundan, bir yoshgacha bolalar o‘limi	7 387	555	33
Tuzilgan nikohlar soni, kishi	197 013	20 955	1 171
Ajrimlar soni, kishi	36 464	3 979	181
Ko‘chib kelganlar soni, kishi	166 909	6 787	103
Ko‘chib ketganlar soni, kishi	168 571	8 908	336

(1-jadval. 2022- yil yanvar - sentabr oylarida)

Tug‘ilish darajasi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 4 225 kishini tashkil etdi va 2021-yilning shu davriga (4 423 kishi) nisbatan 198 kishiga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 25,6 promilleni tashkil qildi (2021-yilning shu davrida 27,4 promille).

O‘lim darajasi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 735 kishini tashkil etdi va 2021- yilning shu davriga (726 kishi) nisbatan 9 kishiga ko‘paygan. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi (2021- yilning shu davrida 4,5 promille).

Tabiiy o‘shish. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2022-yilning yanvar-sentabr holatiga tabiiy o‘shish 3 490 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davri (3 697 kishi)ga nisbatan 207 kishiga kamayganini kuzatishimiz mumkin.

Nikohlar va ajralishlar. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlarida 1171 ta nikohlar va 181 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Mingta aholiga nisbatan 7,1 nikoh (2021-yilning tegishli davrida 7,9) va ajralishlar 1,1 (2021- yilning tegishli davrida 1,0) to‘g‘ri keladi.

Migratsiya. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida tuman bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 103 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 336 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 233 kishiga (2021-yilning shu davrida minus 171 kishi) teng bo‘ldi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki aholi soni ortgan sari ishga bo‘lgan talab ham, ishsizlar soni ham ortib boradi. Shu bilan aholining yashash sharoiti ham salbiy

tomonga o'zgarib boshlaydi. Bunday hollar bartaraf etish uchun eng avval aholini ishchi kasblar bo'yicha kadr sifatida tayyorlash lozim. Faqatgina ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash emas, o'quv jarayonlarini amaliyot bilan bog'lagan holda tashkil etish, ishsiz aholi, jumladan yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ham ayni muddao hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ishsiz aholi va ish qidirayotgan shaxslar kasb hunarga o'qitiladi va aholining o'z- o'zini band qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Population Hits 6 Billion. Дата обращения: 30 сентября 2017. Архивировано из оригинала 10 августа 2017 года. World Population Hits 6 Billion
2. O'zbekiston demografik yillik to'plami. 2017-2021 yil. Toshkent-2022. Statistik to'plam.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Spisok_gosudarstv_i_zavisimix_territoriy_po_naseleniyu
4. Saydiyevna, K. G. (2023). THE USE OF ALLUSIVE UNITS IN POETRY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1132-1136.
5. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. Specialusis Ugdymas, 1(43), 10577-10582.
6. <https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/demogpressreliz012023uz.pdf>
7. Келдиёрова, Г. С. (2021). Язык и стиль Эркина Вахидова. Молодой ученый, (41), 40-42.
8. Abdurahmanova, M., & Rahmanova, A. (2021). КОПИУС ЛИНГВИСТИКАСИДА ПОЛИСЕМИЯ. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
9. Babanazarova Sevara, & Sharofiddinov Jakhongir. (2022). Study of Population Statistics (On The Example of Population Statistics of Uzbekistan). Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.663>